TALABALARNING INGILIZ TILIDAN OG‘ZAKI DISKURSIV KOMPETENTSIYASINI LINGVODIDAKTIK TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Muminova Nasiba Solijon qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi, dotsent v.b., f.f.f.d. (PhD), ORCID: 0009-0009-2347-9353

E-mail: nasiba_9095@inbox.ru

Annotatsiya. Mazkur maqola Gibrid talim muhitida talabalarning ingiliz tilidan diskursiv kompetentsiyasini takomillashtirishning pedagogik va ilmiy-metodik zaruratlarini asoslash, savol va topshiriq biln birga ingiliz tili fanlaridan topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari o‘qitishda darslik va o‘quv reja tushunchasini kiritish, didaktik yondashuv asosida tavsiflash hamda ularni vazifasi nuqtai nazardan tasniflash, amaliyotga tatbiq qilish, ingiliz tili ta’lim mazmunini o‘qitish metodikasi bo‘yicha takomillashtirishda o‘quv topshiriqlar tizimini yaratish va ulardan foydalanish hamda innovatsion ta’lim texnologiyalar orqali Gibrid talim muhitida talabalarning ingiliz tilidan diskursiv kompetentsiyasini takomillashtirish metodikasiga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Gibrid talim, gibrid ta’lim muhiti, ingiliz tili, diskursiv kompetentsiya, ingiliz tili ta’limi, o‘quv topshiriqlari, integratsion-metodik yondashuv, metodik, didaktik, pedagogik talab, modulli ta’lim, innovatsion ta’lim texnologiyalari, metodik yondashuv.

Аннотация. Статья посвящена обоснованию педагогической и научно-методической необходимости совершенствования дискурсивной компетенции студентов по английскому языку в условиях гибридной образовательной среды. Рассматриваются научно-теоретические основы разработки вопросов и учебных заданий по дисциплинам английского языка, раскрываются понятия учебника и учебного плана с позиций дидактического подхода, а также проводится их классификация с точки зрения функционального назначения и практического применения. Особое внимание уделяется разработке системы учебных заданий и их использованию в целях совершенствования методики преподавания содержания обучения английскому языку. Кроме того, исследуется методика совершенствования

дискурсивной компетенции студентов по английскому языку в условиях гибридной образовательной среды посредством применения инновационных образовательных технологий.

Ключевые слова: гибридное обучение, гибридная образовательная среда, английский язык, дискурсивная компетенция, обучение английскому языку, учебные задания, интегративно-методический подход, методика, дидактика, педагогические требования, модульное обучение, инновационные образовательные технологии, методологический подход.

Abstract. This article is devoted to substantiating the pedagogical and scientific-methodological necessity of improving students’ discursive competence in English within a hybrid learning environment. It examines the scientific and theoretical foundations for developing questions and assignments in English language subjects, introduces and characterizes the concepts of textbooks and curricula from a didactic perspective, and classifies them according to their functions and practical applications. Furthermore, the study focuses on developing a system of learning tasks and exploring their effective use in improving the methodology of teaching English language content. Particular attention is paid to the development of a methodology for enhancing students’ discursive competence in English through innovative educational technologies in a hybrid learning environment.

Keywords: hybrid learning, hybrid learning environment, English language, discursive competence, English language education, learning assignments, integrative-methodological approach, methodology, didactics, pedagogical requirements, modular learning, innovative educational technologies, methodological approach.

Kirish.

Talabaning nutqiy ko‘nikmalarini monitoring qilish va korreksiyalash imkonini beruvchi lingvodidaktik platforma vazifasini o‘taydigan metodik yondashuvlar ishlab chiqish lozim. Talabalarga muayyan kasbiy mavzular (Relationships, The News, International Politics va b.) doirasidagi diskurs markerlari va lingvopragmatik klishelar tizimini ishlab chiqish va amaliyotga keng taqdim etish galdagi vazifamiz hisoblanadi. Bunda “scaffolding” (nutqiy tirgak) strategiyasi asosida talabada sun’iy intellekt bilan

muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan leksik-frazeologik baza va kommunikativ trayektoriya shakllantiriladi.

Interaksiya (ALE muhitida muloqot) bosqichi: talaba ALE interfeysi orqali sun’iy intellekt bilan og‘zaki muloqotga kirishadi. Belgilangan kommunikativ rollar (diplomat, jurnalist, ekspert va b.) doirasida real vaqt rejimida spontan nutq mahsuloti yaratiladi, talabaning nutqiy reaksiyalari tizim tomonidan qabul qilinib, muloqotning mantiqiy davomiyligi ta’minlanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Lingvometodik yangiligi talabalardagi ichki nutqiy dasturlash mexanizmini transformatsiya qilishda namoyon bo‘ladi. L.S.Vigotskiy va A.A.Leontev nazariyalariga tayangan holda, talabaning ona tilidagi “kengaytirilgan (tarjimaga asoslangan) o‘ylash tarzidan xorijiy tildagi “qisqargan (sintetik-blokli) dasturlash bosqichiga o‘tishi asoslab berildi. Bu esa og‘zaki nutqning pauzalarni qisqartirishning ilmiy-metodik yechimi sifatida xizmat qiladi. Lingvometodikaning markazida turgan sun’iy intellekt texnologiyasi nafaqat suhbatdosh, balki “raqamli kouch vazifasini bajaradi. U talabaning nutqiy darajasiga moslashib, didaktik tirgak (scaffolding) strategiyasini qo‘llaydi: murakkab vaziyatlarda zarur diskurs markerlari va kasbiy terminlarni taqdim etadi.

Muhokama.

Bu jarayonda texnologiya talabaning individual rivojlanish trayektoriyasini avtomatik tarzda loyihalaydi va muloqotni maqsadli yo‘nalishda saqlab turadi. Og‘zaki nutqni baholashning an’anaviy usullaridan voz kechilib, nutqni matnga aylantirish (Speech-to-Text) va uning transkriptini tahlil qilish metodikasi joriy etildi. Bu talabaga o‘z nutqidagi lingvistik fakrorlar, mantiqiy uzilishlar va lingvopragmatik xatolarni vizual idrok etish imkonini berdi. Ilmiy jihatdan ushbu “refleksiv ko‘zgu talabada o‘z-o‘zini korreksiya qilish va nutqiy mahsulotni ongli boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishda eng samarali instrument bo‘lib xizmat qiladi. Monitoring va tahlil bosqichi: Muloqot yakunida ALE tizimi suhbatning matnli nusxasini (transcript) taqdim etadi. Ushbu bosqichda talaba o‘z nutqidagi diskursiv xatolarni va mantiqiy uzilishlarni refleksiv tahlil qilib, o‘z-o‘zini korreksiya qilish (self-correction) ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Transfer (Nutqiy ko‘nikmalarni ko‘chirish) bosqichi: nutqiy strategiyalar va strategik kompetensiya real auditoriya muhitiga transformatsiya qilinadi. Talabalar guruhli bahs-munozara va debatlar orqali orttirilgan malakalarni real ijtimoiy-kasbiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Algoritmning tatbiq etilishi talabalarda og‘zaki diskursning ravonligini oshirish bilan birga, lingvopsixologik to‘siqlarni bartaraf etish va nutqiy mahsulotning pragmatik adekvatligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Talabalarning og‘zaki diskursiv kompetensiyasi (TODK) darajasini aniqlash maqsadida tizimli baholash varaqasi (Rubrics) ishlab chiqish va baholash jarayoni quyidagi uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirildi: 1) Kogerentlik va kogeziya (Coherence and Cohesion): fikrlarni mantiqiy bog‘lash, nutq pauzalaridan o‘rinli foydalanish va diskurs markerlarini qo‘llash layoqati; 2) Strategik kompetensiya (Strategic Competence): muloqotdagi to‘siqlarni parafraz, sinonimlar va aniqlashtiruvchi so‘rovlar (clarification requests) orqali bartaraf etish mahorati; 3) Pragmatik muvofiqlik (Pragmatic Appropriateness): ijtimoiy maqom va nutqiy vaziyatga (rasmiy/norasmiy) mos til shakllarini tanlay olish qobiliyati. Tajriba guruhlarida og‘zaki diskursiv kompetensiyani takomillashtirish jarayoni bevosita ingliz ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga kiritilgan. So‘z boyligini oshirish va diskurs faniga oid amalga oshiriladi. Bunda ta’limning nazariy qismida ajratib olingan Relationships, The News, International Politics va Socializing kabi mavzular blok-modul tizimi asosida qayta ishlab chiqiladi. Har bir mavzu doirasida talabalarning nutqiy faoliyatining og‘zaki imkoniyatlari orqali kengaytiriladi. Og‘zaki diskursiv kompetensiya shunchaki lingvistik bilimlar yig‘indisi emas, balki murakkab kognitiv-kommunikativ fenomen sifatida talqin etildi. Ilmiy-metodik jihatdan bu kompetensiya talabaning muayyan ijtimoiy va kasbiy kontekstda muloqot strategiyalarini mustaqil tanlash, nutqiy niyatni (intensiya) adekvat ifodalash va suhbatdosh bilan pragmatik aloqani saqlab qolish layoqati sifatida asoslandi. Bu yondashuv an’anaviy “til o‘rgatish paradigmasidan “diskursni shakllantirish paradigmasiga o‘tishni ta’minladi.

Ilmiy izlanishda ALE (Artificial Language Environment) nafaqat texnik vosita, balki talabaning nutqiy faoliyatini faollashtiruvchi immersiv muhit sifatida yoritiladi. Metodik jihatdan ushbu muhit talaba uchun “xavfsiz muloqot maydoni” vazifasini o‘taydi, chunki

sun’iy intellekt bilan integratsiya jarayonida talaba lingvopsixologik to‘siqlarni yengadi. Bu muhitda ta’lim oluvchi til birliklarini sun’iy ravishda emas, balki jonli muloqot simulyatsiyalari orqali tabiiy o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladi.



Natija.

Oliy ta’lim muassasalaridagi amaldagi o‘quv rejalari va “nutq amaliyoti” va “til aspektlari amaliyoti”, “so‘z boyligini oshirish va diskurs ingiliz tilidagi fanlarining ishchi dasturlari lingvodidaktik jihatlari tahlili, diskursiv kompetensiyani takomillashtirishga qaratilgan mashqlar tizimi, ingliz ta’lim yo‘nalishi talabalarining og‘zaki diskursiv kompetensiyasini takomillashtirish modeli ishlab chiqilgan. Ingliz ta’lim yo‘nalishi yo‘nalishidagi “og‘zaki nutq amaliyoti va “til aspektlari amaliyoti”, “so‘z boyligini oshirish va ibngiliz tili fanlaridan diskurs modulning didaktik talablari talabalarda og‘zaki diskursning fundamental ko‘nikmalarini takomillalshtirish, amaliyotda asosiy urg‘u nutqiy va lingvistik normalarga qaratilib, nutqning pragmatik va strategik jihatlari, ularni yaxlit va mantiqiy mazmunga ega bo‘lgan diskurs holatiga keltirishda kompensator strategiyalarning yetishmasligi kuzatiladi. Og‘zaki diskursiv kompetensiyani takomillashtirish jarayoni nafaqat leksik birliklarni o‘zlashtirishni, balki talabadan raqamli kommunikativ maydonda

lingvopragmatik jihatdan asoslangan nutq tuzish layoqatini talab etadi. Shu bois, mavjud diskurs fanlariga oid amaliy dars mashg‘ulotlari blokini transformatsiya qilish va uni texnologik muhit vositalari bilan boyitish konsepsiyasi ishlab chiqish muhim. Ingliz ta’lim yo‘nalishi talabalarining og‘zaki diskursiv kompetensiyasini takomillashtirishning tarkibiy-mazmunli modeli ishlab chiqish hamda ushbu model an’anaviy auditoriya ta’limini individuallashtirilgan raqamli simulyatsiyalar bilan boyitish va talabalarni real muloqot vaziyatlariga linvopsixologik hamda lingvodidaktik jihatdan tayyorlash imkonini beradi. Ingliz tili ta’lim yo‘nalishi talabalarining og‘zaki diskursiv kompetensiyasini takomillashtirish metodik model beshta strategik blokdan iborat yaxlit tizimni tashkil etadi: maqsadli-yo‘naltiruvchi blok talabalarning diskursiv ehtiyojlarini diagnostika qilish va motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qilsa, mazmunli metodik blok “so‘z boyligini oshirish va diskurs faniga oid dasturlar asosida kasbiy mavzular va nutqiy tayanchlarni integratsiyalaydi, jarayonning markazida turgan texnologik-protsessual blok Pocket AI Interaction texnologiyasi orqali individual muloqot trayektoriyasini ta’minlaydi, Lingvodidaktik yondashuv blokida esa gibrid talim muhitida talabalarning ingiliz tilidan og‘zaki diskursiv kompetentsiyasini takomillashtiriladi. natijaviy-baholash blok esa nutqiy transkriptlar tahlili va belgilangan indikatorlar asosida kompetensiya darajasini monitoring qilish va korreksiyalash vazifasini bajaradi. Ushbu ishlab chiqilgan mezonlar va baholash shkalasining mantiqiy qismi nazariy modelini amaliy eksperiment bilan bog‘laydi. Og‘zaki diskursiv kompetensiyani baholashning ko‘p komponentli shkalasi ishlab chiqildi. Ingliz ta’lim yo‘nalishi yo‘nalishi talabalarining og‘zaki diskursiv kompetensiyasini takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari va tahlili amalga oshirish muhim.

Talabalarning og‘zaki diskursiv kompetensiyasi (TODK) quyidagi to‘rtta integral mezon asosida baholandi: a) diskursiv-logik mezon: nutqning izchilligi va mantiqiy yaxlitligi; b) pragmatik-kommunikativ mezon: ijtimoiy vaziyatga mos nutq strategiyalarini tanlash; c) lingvo-professional mezon: kasbiy terminlarni og‘zaki nutqda qo‘llash chastotasi; d) strategik-texnologik mezon: muloqotdagi to‘siqlarni kompensator vositalar va raqamli texnologiyalar yordamida bartaraf etish.

So‘z boyligini oshirish va diskursiv fanga oid dasturini modernizatsiya qilishda kasbiy-

kognitiv yondashuv asos qilib olinadi. Mavzular (Relationships, International Politics, The News) shunchaki leksik mavzu sifatida emas, balki muayyan nutq janrlari (intervyu, debat, taqdimot) kesimida loyihalandi. Bu talabalarga til birliklarini umumiy tarzda emas, balki aniq ijtimoiy-professional kontekstlarda va pragmatik maqsadlarda qo‘llash metodikasini o‘zlashtirish imkonini yaratdi. Amaliyotga joriy etilgan 4 bosqichli algoritm (Yo‘naltirish → Interaksiya → Monitoring → Transfer) o‘quv jarayonining mantiqiy zanjirini ta’minladi. Har bir bosqich talabani asta-sekinlik bilan murakkab diskurs yaratishga tayyorlaydi. Ayniqsa, “Transfer bosqichining mavjudligi real hayotiy vaziyatlarga va akademik muhitga muvaffaqiyatli ko‘chirilishini (ekstrapolyatsiyasini) ilmiy jihatdan kafolatlaydi.

Xulosa.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki. Integral mezon (logik, pragmatik, professional va strategik) og‘zaki nutqni kompleks baholash imkonini beradi. Bu mezonlar nafaqat tilning grammatik to‘g‘riligini, balki nutqning izchilligi (cohesion), mazmuniy yaxlitligi (coherence) va muloqotdagi to‘siqlarni yengib o‘tish (strategic competence) mahoratini o‘lchaydi. Bu yondashuv baholash jarayonini nazariy-statik holatdan amaliy-dinamik holatga o‘tkazadi. Ingiliz tili ta’limini raqamlashtirish bo‘yicha yangi istiqbollarni ochadi. Sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim subyektlari o‘rtasidagi “kommunikativ mediator” sifatida talqin qilish til o‘qitish metodikasini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi. Bu yondashuv bo‘lajak mutaxassislarning nafaqat til bilish darajasini, balki ularning zamonaviy raqamli jamiyatda raqobatbardosh muloqot sohibi bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amanov A.A. Talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili ta’lim yo‘nalishi misolida): Ped. fan. fals.dokt. ... (PhD) diss. avtoreferati. – Namangan, 2025. – 60 b.

2. Bekimbetova G.R. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitish mexanizmini takomillashtirish: Ped. fan. dok. ... dis. avtoref. – Nukus, 2024. – 66 b.

3. Djuraev D.M. Xitoy tilida talabalarning lingvokulturologik kompetensiyasini

shakllantirish: Ped. fan. fals.dokt. ... (PhD) diss. avtoreferati. - Toshkent, 2019. 49 b.

4. Ermirzaev A.V. Yuqori sinf o‘quvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini mamlakatshunoslikka oid matnlarni o‘qish orqali rivojlantirish texnologiyasi: Ped. fan. fals.dokt. ... (PhD) diss. avtoreferati. – Namangan, 2022. – 50 b.

5. Isroilova D.M. Muhandis talabalarni chet tili kasbiy muloqotiga o‘qitishda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish (ingliz tili, magistratura): Ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoreferati. – Chirchiq, 2023. – 81 b.

6. Istamova D.S. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi (SCAMPER, SKETCHNOTING misolida): Ped. fan. fals. dokt. ... (PhD) diss. avtoreferati. - Navoiy, 2023. 46 b.

7. Jakbarova N.P. Ingliz tili darslarida akademik litsey o‘quvchilarining madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish: Ped. fan. fals. dokt. ... (PhD) diss. avtoreferati. - Namangan, 2025. 59 b.

8. Kurbanova F.K. Xorijiy tilni o‘qitish sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi misolida): Ped. fan. fals.dokt. ... (PhD) diss. avtoreferati. - Farg‘ona, 2025.

9. Mamarajabov B.B. Lingvomadaniyatshunoslik yondashuvi asosida bo‘lajak tarjimonlarning kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish: Ped. fan. fals.dokt. ... (PhD) diss. avtoreferati. - Toshkent, 2022. 46 b.

10. Kaliknazarova Ziyada Marat-qizi Yasama til muhitida ingliz filiologiyasi talabalarining og‘zaki diskursiv kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi: Ped. fan. fals.dokt. ... (PhD) diss. avtoreferati. – Nukus.: 2026. 56 b.

11. Зимняя И.А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. - М., 1987. – 122 с.

12. Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе. - М.: Просвещение, 1991. - С. 27.

13. Лебедева Н.М. Межкультурный диалог. Тренинг этнокультурной компетентности / Н.М.Лебедева, О.В.Лунева. - М., 2003. – 250 с.

14. Леонович О.А. Краткий словарь английских прозвищ. - М.: Высшая школа, 2007. – 183 с.

15. Леонтович О.А. Русские и американцы: Парадоксы межкультурного общения: монография. — Волгоград: Перемена, 2002. – 435 с.

16. Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминоэлементов. - М., 1982. — С.112.

17. Маров В.Н. Прагматика и стилистика текста. - Алма-Ата.: Казах, гос. ун-т, 1988. – 50 с.

18. Мильруд Р.П. Введение в лингвистику. - М.: Дрофа, 2005а. – 138 с.

19. Мильруд Р.П. Методика преподавания английского языка / English Teaching Methodology. — М.: Дрофа, 2005б. – 253 с.

20. Общеевропейские компетенции владения иностранным языком: Изучение, преподавание, оценка. – Cambridge University Press, МГЛУ, 2003. – 256 с.

